

**QORADARYO DARYOSI GIDROLOGIK REJIMIGA ANDIJON SUV
OMBORINI TA'SIRI**

*Artikov Ulugbek Baxodirjonovich
Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti*

Annotation: *Mazkur maqola Qoradaryo daryosining gidrologik rejimiga Andijon suv omborining ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda suv omborining qurilishi va faoliyati daryoning suv sathlari, oqim miqdori va mavsumiy rejimiga qanday ta'sir ko'rsatgani tahlil qilinadi. Olingan natijalar suv resurslarini boshqarish va suv-energetika siyosatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asos yaratadi.*

Tayanch so'z va tushunchalar: *Qoradaryo daryosi, Andijon suv ombori, yillararo tebranish, gidrologik rejim, suv sarfi.*

**ВЛИЯНИЕ АНДИЖАНСКОГО ВОДОХРАНИЛИЩА НА
ГИДРОЛОГИЧЕСКИЙ РЕЖИМ РЕКИ КАРАДАРЬЯ**

*Арткови Улугбек Баходиржонович
Докторант НИИ Гидрометеорологии*

Аннотация: Данная статья посвящена изучению влияния Андийского водохранилища на гидрологический режим реки Карадарья. В исследовании анализируются изменения уровня воды, расхода и сезонного режима реки в результате строительства и эксплуатации водохранилища. Полученные результаты создают научную основу для управления водными ресурсами и совершенствования водно-энергетической политики.

Ключевые слова: Река Карадарья, Андижанская водохранилище, межгодовое колебание, гидрологический режим, расход воды.

INFLUENCE OF ANDIJON RESERVOIR ON THE HYDROLOGICAL REGIME OF THE KARADARYA RIVER

Artikov Ulugbek Bakhodirjonovich

Doctoral student of the Hydrometeorological Research Institute


Abstract: This article focuses on studying the impact of the Andijan Reservoir on the hydrological regime of the Qoradaryo River. The research analyzes how the construction and operation of the reservoir have influenced the river's water levels, discharge, and seasonal flow patterns. The findings provide a scientific basis for improving water resource management and water-energy policies.

Key words and concepts: Karadarya River, Andijan Reservoir, interannual fluctuations, hydrological regime, water consumption.

Kirish. Qoradaryo Qirg‘iziston hududida Farg‘ona tizmasining janubi-g‘arbiy yon bag‘rida va Oloy tizmasining shimoliy yon bag‘rida hosil bo‘luvchi Tar ($L=192$ km, $F=4510$ km 2) va Qorako‘lja ($L=119$ km: $F=1210$ km 2 V.L.Shuls bo‘yicha) daryolarining qo‘shilishidan hosil bo‘ladi, ulardan eng yirigi Tar daryosidir. Tar daryosi Qoradaryoning asosiy suv manbai bo‘lib, uning suv sarfi Qoradaryoning umumiyl suv hajmining katta qismini tashkil etadi.[1] Daryo qor muz suvlaridan to‘yinadi. Qoradaryoning gidrologik rejimi 1969 yilgacha tabiiy holatda, 1969 yildan so‘ng esa Andijon suv omborining to’goni qurilishini boshlanishi munosabati bilan O‘zbekiston hududidan oqib o‘tuvchi qismi suniy ravishda boshqarilmoxda. Qoradaryo daryosining gidrologik rejimi bir qancha olimlar tomonidan o‘rganilgan, lekin so‘nggi tadqiqotlarda bu mavzuga e’tibor berilmagan. Bu maqolada Qoradaryoni gidrologik rejimi shartli uch davrga bo‘lib o‘rganildi:

1. Qoradaryoning 1969 yilgacha bo‘lgan tabiiy gidrologik rejimi ma’lumotlari asosida shakllantirilgan davr.
2. 1970-1991 yillarni o‘z ichiga oluvchi ikkinchi davr (Andijon suv ombori qurilishi boshlangan vaqtidan, O‘zbekiston mustaqilligigacha bo‘lgan davr)
3. 1991 yildan keyingi gidrologik rejim davri.

Natijalar va muxokama. Qoradaryo daryosining gidrologik rejimini sistematik o‘rganish ishlari 1910 yilda Kampirrovot gidropostida suvning sathini va 8 aprel 1920 yilda daryoning suv sarfini doimiy kuzatib borish ishlari boshlangan (1-rasm). Keyinchalik 1934 yil 20 noyabr kuni xozirgi Baliqchi tumani Cho‘ja qishlog‘ida navbatdagi gidropost ishgaga tushirildi. 1936 yil holatiga Qoradaryo havzasida jami 10 ta gidrologig post faoliyat olib borgan. Hozirgi kunda Qoradaryoning O‘zbekistondan oqib o‘tuvchi qismida Qorabag‘ish va Baliqchi (Uchtepa) gidropostlarida kuzatuvar olib boriladi.



1-rasm. 1920-1975 yillar davomida Qoradaryoda kuzatuv olib borilgan Kampirrovot gidropostining joylashuvi. (mghydro.com/watersheds)

Qoradaryo daryosi havzasidagi hidrologik rejim kuzatish postlari

Daryo nomi	Punktlar nomi	Joylashgan o‘rni	Faoliyat boshlagan yili	Kuzatilgan oylar
Qoradaryo	Kampirravot	Daryo quyilish joyidan 139 km yuqorida	8.04.1920	I-XII
	Norin-kapa (Cho‘ja)	Daryo quyilish joyidan 12 km	20.11.1934	I-XII

	qishlog‘i	yuqorida		
	Qorabagish	Daryo quyilish joyidan 135 km yuqorida	1.01.1969	
Qoraqulja	Oqtosh qishlog‘i	Daryo quyilish joyidan 36 km yuqorida	18.12.1937	I-XII
	Chekelek qishlog‘i	Daryo quyilish joyidan 25 km yuqorida	26.04.1936	I-XII
Tar	Stalin nomidagi kolxozi	Daryo quyilish joyidan 25 km yuqorida	10.10.1937	I-XII
	Laytala qishlog‘i	Daryo quyilish joyidan 13 km yuqorida	27.04.1937	I-XII
Yassi	Salamalik qishlog‘i	Daryo quyilish joyidan 50 km yuqorida	20.07.1936	I-XII
	Auton (Odicha) qishlog‘i	Daryo quyilish joyidan 48 km yuqorida	1.04.1936 31.08.1936 yopilgan	VIII
	Ayna-Qizil qishlog‘i	Daryo quyilish joyidan 7 km yuqorida	20.11.1936	I-XII
	Qashqa-Terek qi’shlog‘i	Daryo quyilish joyidan 1.2 km yuqorida	10.11.1928 31.01.1937 yopilgan	I-XII


Qoradaryoda suv omborini barpo etish bo‘yicha dastlabki loyihalar 1927 yilga borib taqaladi, biroq bu loyihalar amalga oshirilmaydi. 1936-1940 yillarda Qoradaryoda oqimini Shahrixonsov, Andijonsov, Savay magistral kanallariga taqsimlash uchun Kampir-Ravot darasida birinchi suv taqsimlash gidrouzeli qurildi. Andijon suv ombori qurish ishlari 1969-yilda boshlanib, 1983-yili foydalanishga topshirildi. Umumiy hajmi 1.9 km kub. Umumuy yer maydoni 56 km.kv. Suv omborining uzunligi 20 km, eni 6 km ni tashkil qiladi. Maksimal chuqurligi 98 m.

Suv ombori birinchi navbatda qishloq ho‘jaligi yerlarini sug‘orish uchun qurilgan, lekin hozirgi kunda asosan elektr energiya ishlab chiqarish uchun ishlatalmoqda.

Maqolada 1969 yilgacha bo‘lgan ma’lumotlar Kampirrovot gidroposti bo‘yicha shakllantirilgan. 1969 yilda suv ombori to’goni qurilishini boshlanishi bilan, kuzatuv ishlari yangi qurilgan Qorabag’ish gidroposti bilan birga olib borilgan. Kampirrovot gidroposti 1975 yilda yopilgan.

1936-1945 yillar mobaynida daryo suv sathida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan. 1936 yilda suv sathi yuqori bo‘lib, $375.6 \text{ m}^3/\text{sek}$ tashkil etgan. Keyingi yillarda, ayniqsa 1937-1939 yillar davomida suv sathi pasayib, $225.4 \text{ m}^3/\text{sek}$ (1937) va $74.3 \text{ m}^3/\text{sek}$ (1939) gacha tushgan. 1946-1956 yillarda Qoradaryo daryosi suv sathida muayyan o‘zgarishlar kuzatilgan. 1946 yilda suv sathi $129 \text{ m}^3/\text{sek}$, 1947 yilda esa minimal darajaga tushib $73.35 \text{ m}^3/\text{sek}$ ni tashkil qilgan. Keyingi yillarda suv sarfi asta-sekin tiklana boshlagan, 1952 yilda eng yuqori daraja $179.8 \text{ m}^3/\text{sek}$ ga teng bo‘lgan.

1957-1969 yillarda Qoradaryo suv sarfida sezilarli pasayish va o‘zgarishlar mavjud. 1957 yilda suv sarfi $96.8 \text{ m}^3/\text{sek}$, 1961 yilda esa $75.95 \text{ m}^3/\text{sek}$ gacha tushgan. 1965 yilda minimal ko‘rsatkichlar kuzatilgan, bu vaqtida suv sathi $50.45 \text{ m}^3/\text{sek}$ ga yetgan. Biroq, 1966 yildan keyin suv sathi yana ko‘tarilib, 1969 yilda kuzatuvarlar davridagi maksimal oylik ko‘rsatkich $213.4 \text{ m}^3/\text{sek}$ yetgan. (1- jadval)



1-jadval Qoradaryo daryosining Kampirrovot gidroposti bo‘yicha 1936-1969 yillar mobaynida daryo suv sarfini o‘zgarishlari


1936-1969 yillar davomidagi kuzatishlar davomida Qoradaryo daryosining o‘rtacha yillik suv sarfi $132 \text{ m}^3/\text{s}$ ga teng bo‘lgan.

1969 yildan boshlab Andijon suv ombori to‘g‘onini qurilishi jadal suratlarda olib borilishi va suv omborini Qoradaryo suvlari bilan to‘lg‘azishni boshlanishi daryoning yillik suv sarflari ko‘rsatkichlarini keskin o‘zgarishlariga olib keldi. 1970 yildan boshlab daryo gidrologik rejimi to‘laligicha Andijon suv ombori tomonidan sun’iy ravishda boshqarila boshlandi. Bu yilga kelib daryo suv sarfi $60 \text{ m}^3/\text{sek}$ gacha tushgan bo‘lgan bo‘lsa, 1971 va 1972-yillarda bu miqdor yanada pasayib, mos ravishda $45.19 \text{ m}^3/\text{sek}$ va $28.9 \text{ m}^3/\text{sek}$ ni tashkil etgan. 1986 yil Qoradaryo uchun suv sarfi bo‘yicha eng past yillardan biri bo‘lgan suv sarfi $3.00 \text{ m}^3/\text{sekga}$ tushgan. 1987 va 1988 yillarda daryo suv sarfi yana oshib, mos ravishda 92.70 va $117.53 \text{ m}^3/\text{sek}$ gacha ko‘tarilgan.

Umuman olganda, 1970-1991yillar davomida Qoradaryoning o‘rtacha yillik suv sarfi Qorabag‘ish gidroposti yonida $31 \text{ m}^3/\text{s}$ ni tashkil etgan.

1992 yilda Qoradaryo suv sarfi past bo‘lib, atigi $17.9 \text{ m}^3/\text{sek}$ ni tashkil etgan. 1993 yilda esa sezilarli o‘sish kuzatilib, $62.4 \text{ m}^3/\text{sek}$ ga yetgan. Bu davrda daryoning

suv sathida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan .1994 yilda suv sathi biroz kamaygan, lekin hali ham o‘rtacha ko‘rsatkichlardan yuqori bo‘lgan ($48.7 \text{ m}^3/\text{sek}$). 1995 va 1996 yillarda daryo suv sarfi juda past darajaga tushgan (7.10 va $5.19 \text{ m}^3/\text{sek}$), 1997 yilda biroz o‘sish kuzatilgan ($11.3 \text{ m}^3/\text{sek}$). 1998 yilda keskin o‘sish kuzatilib, suv sathi $83.3 \text{ m}^3/\text{sek}$ ga yetgan, 1999 yilda esa yana kamayib, $47.6 \text{ m}^3/\text{sek}$ gacha tushgan.(2-jadval)



2-jadval. Qoradaryo daryosining Kampirrovot va Qorabag’ish gidroposti bo‘yicha 1936-1999-yillar mobaynida daryo suv sarfini o‘zgarishlari

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Qoradaryoning o‘rganilgan uchta davrida quyidagi tendensiyalarni kuzatish mumkin:

1.Doimiy kuzatishlar boshlangan 1920 yildan 1969 yilgacha Qoradaryo tabiiy rejimidagi o‘rtacha yillik suv sarfi $132 \text{ m}^3/\text{sek}$ ni tashkil etgan va bu ko‘rsatkich qolgan kuzatuvlardan qaraganda ancha yuqori ko‘rsatkichga ega.

2.O‘rganishlarning 2 davri bo‘lgan 1970 va 1991 yillarda Andijon suv ombori qurilishi va boshqa ta’sirlar natijasida daryo suv sarfi minimal darajaga tushgan. Bu yillarda mobaynida Qoradaryoning o‘rtacha yillik suv sarfi $31 \text{ m}^3/\text{s}$ ni tashkil etgan.

3.Uchinchi kuzatuvlardan bo‘lgan 1992-1999 yillar mobaynida daryoning yillik o‘rtacha suv sarfida oldingi davrga nisbatan biroz ko‘payish kuzatilib daryo suv sarfi $35.4 \text{ m}^3/\text{sek}$ ga yetgan.

4. Andijon suv ombori qurilishi Qoradaryoning gidrologik rejimini o'zgarishiga va uning yillik suv sarfini keskin kamayishiga olib kelgan. Andijon suv omborini suv bilan to'ldirish ishlari boshlangan 1969 yilgacha bo'lган davrda Qoradaryoning o'rtacha suv sarfi $132 \text{ m}^3/\text{sek}$ ni tashkil etgan bo'lsa, 1970 yildan 1999 yillar oralig'ida daryoning o'rtacha yillik suv sarfi $34 \text{ m}^3/\text{sek}$ gacha pasaygan. 1999 yildan buyon Qorabag'ish gidropostida Qoradaryo daryosi suv sarfini o'lchash ishlari to'xtatilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Шульц В.Л. Реки Средней Азии. – Л.: Гидрометеоиздат, 1965. – 691 с.
2. Гидрологический ежегодник. Бассейн реки Сирдарья. 1936-1991. Гидрометиздат.Ленинград
3. Афанасьев А.Н. Колебания гидрологического режима на территории СССР. – М.: Наука, 1967. - 231 с.